

Amu-Buxoro mashina kanali ta'sir zonasidagi suvli landshaftlardan samarali foydalanish

**Ergasheva Mavjuda Komiljonovna., Nematov Anvar Nusratovich.,
Qalandarova Dilobar Davronovna.**

Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchilari

Buxoro viloyati O'rta Osiyoda, O'zbekistonda sug'orma dehqonchilikning eng qadimgi o'choqlaridan biri hisoblanadi. Qadimdan viloyatdagi obikor yerlar Zarafshon daryosidan sug'orilib kelinadi. Zarafshon vodiysida aholining ko'payishi, sug'orma yerlarning ortib borishi suv muammosini keskinlashtirdi. Suv muammosini oldini olish maqsadida 1965-yilda Amu-Buxoro kanalining birinchi navbati, 1975-yilda ikkinchi navbati ishga tushirildi.

Bugungi kunda suvga bo'lgan munosabat butunlay o'zgardi. Undan samarali foydalanish masalalari yangicha kun tartibiga qo'yildi. Buning ustiga suvlarning tabiiy kamayishi sodir bo'lmoqda. Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan rejali foydalanish masalalari mushkullashmoqda.

Amudaryodan kanal orqali olinadigan suvning miqdori hozirgi kunda birmuncha muqim holga keltirilgan bo'lib, o'rtacha bir yilda 4,0-4,2 km³ ni tashkil qiladi. Ho'plama nasoslar orqali ushbu suv relyef nishabligiga nisbatan teskari oqizilib, bosqichma-bosqich 125 metr balandlikkacha ko'tarilib beriladi. Amu-Buxoro mashina kanali tufayli yangi vohalar, suv omborlari, aholi manzilgohlari bunyod etildi. Vohalar atrofidagi pastqamliklarda o'ndan ortiq tashlama ko'llar, bir necha zovur, yo'l tizimlari vujudga keldi.

Hozirgi kunda Amu-Buxoro mashina kanali ta'sir zonasidagi hududning umumiy maydoni 20 ming km² ga yetadi. Ma'muriy jihatdan u Buxoro, Navoiy viloyatlariga qaraydi, boshqacha qilib aytganda Oyoqog'itma-Malikcho'l meridianidan Amudaryo o'zanigacha bo'lgan, to'lig'icha cho'l zonasida joylashgan maydonlarni o'z ichiga oladi.

Amu-Buxoro mashina kanali ta'sir zonasidagi landshaftlar orasida eng past gipsometrik yuzaga ega bo'lgan kichik berk botiqlar alohida e'tiborga loyiq. Bularning ko'pchiligi hozirgi kunda suv omborlari, tashlama ko'llarga aylantirilgan. Xojkab, Qo'njako'l, Xo'jamsayyod, Sho'rko'l kabi pastqamliklar esa akkumulyativ negizga ega bo'lgan tuzli yotqiziqlar bilan qoplangan.

Amu-Buxoro mashina kanali ishga tushirilgan yildan buyon o'tgan davr (50 yil) ichida uning ta'sir zonasida landshaftlarning geofizik, geokimyoviy xususiyatlari, yashash holati, morfologik tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, ikkilamchi sho'rlanish, namiqish, botqoqlanish, akva landshaftlarning ko'payishi, shamol eroziyasi - "tuzli yomg'irlar", tub landshaftlarning kambag'allashuvi hozirgi davr uchun xos bo'lgan geoeekologik jarayonlarga aylandi.

Suvli landshaftlar qadimdan oʻzga yurtlardan kirib kelgan Zarafshon daryosi, ayni davrda esa, Amu-Buxoro mashina kanali tizimi tufayli hosil boʻlgan. Bunga Shoʻrkoʻl suv ombori (17,9 km) va Amu-Buxoro mashina kanali oʻzani va oʻzan boʻyida hosil boʻlgan koʻl va koʻlmaklar kiradi. Mazkur suvli landshaftlarning koʻlami va gidrologik, gidrokimyoviy xususiyatlari bevosita Amu-Buxoro mashina kanalining suv sarfi bilan bogʻliq. Filtratsiya tufayli kanal oʻzani boʻylab son-sanoqsiz koʻl va koʻlmaklar, toʻqayzorlar hosil boʻlgan. Mazkur yuzalardan yil davomida katta miqdordagi suv bugʻlanadi.

Toʻdakoʻl suv ombori - Navoiy viloyatidagi suv ombori. Buxoro shahridan 26 km sharqdagi tabiiy soylikda Quyimozor suv omborining janubi-gʻarbida barpo etilgan. 1968-yilda ishga tushirilgan. 1977-yilda qayta taʼmirlangan. Toʻdakoʻl botigʻi va uning etaklari shoʻrlangan, gipsli allyuvial yotqiziqlar bilan qoplangan. Hozirgi kunda uning maydoni 215 km². Amu-Buxoro mashina kanali orqali Amudaryodan toʻldiriladi. Kanalning etak qismidagi yerlarni qoʻshimcha suv bilan taʼminlaydi. Tutashtiruvchi kanal orqali Quyimozor suv omboriga suv beradi. Toʻdakoʻl suv ombori suvi qisman minerallashtirilgan.

Quyimozor suv ombori - Navoiy viloyati hududida 1958-yilda Zarafshon daryosining etak qismidagi chuqurliklardan birining atrofini koʻtarib qurilgan suv omborining kosasi qumtosh aralash loyqalardan tashkil topgan yotqiziqlarda joylashgan. Maydoni 17,3 km² ga yetadi. Suv omboriga Amu-Buxoro mashina kanalining I navbatida Quyimozor nasos stansiyasi orqali suv quyiladi. Uning suvi aksariyat ichimlik suvi sifatida foydalaniladi. Hozirgi kunda suv ombori toʻligʻicha qoʻriqlanadi.

Suvli landshaftlarning katta qismini zovurlar va tashlama koʻllar tashkil qiladi. Hozirgi kunda zovur suvlarining bir qismi Porsonkoʻl zovuri orqali Amudaryo oʻzaniga quyiladi xolos, qolgan asosiy qismi voha atrofida pastqamliklarga tashlanadi. Natijada 10 dan ortiq tashlama koʻllar: Oyoqogʻitma, Qoraqir, Zamonbobo, Kichik-Tuzkon, Katta-Tuzkon, Dengizkoʻl, Devxona, Xadicha kabilar hosil boʻlgan. Ayniqsa, Qorovulbozor tumanining janubiy qismida ularning maydoni yillar sayin ortib bormoqda. Keyingi 30 yil ichida Devxona-1, Devxona-2, Xadicha va soʻnggi yillarda Qumsulton koʻllari hosil boʻlgan. Zovur tizimlari esa takomillashtirilmaganligi sababli yaylovlarning suv ostida qolishi, botqoqlanishi, shoʻrlanishi, kimyoviy ifloslanishi davom etmoqda. Zovur tizimlarini takomillashtirish hozirgi kunda ham davom etmoqda. Chunki hududning relyefi nishabligiga teskari oqizilayotgan Amu-Buxoro mashina kanalining ishga tushirilishi zovurlar tizimini yanada takomillashtirishni taqozo qilib turibdi. Bundan tashqari, viloyat hududini Zarafshon daryosining quyi qismida joylashganligi tufayli Navoiy, Qashqadaryo viloyatlardan katta miqdorda oqova-zovur suvlari kirib keladi.

Kanal taʼsir zonasidagi landshaftlarning yil davomida oʻzgarishi kanal suvining miqdoriga bogʻliq. Kanal toʻlib oqqanda uning suvi atroflardagi pastqamliklarga sizadi va koʻlmaklar hosil qiladi. Kanal suvsiz qolganda teskari jarayon kuzatiladi, yani atrofdagi shoʻrlangan yerosti suvlari kanal oʻzaniga

tomon oqadi natijada mavsumiy o'zgaruvchan o'ziga xos ekoton landshaftlar namoyon bo'ladi. Sho'rxok landshaftlari pastqam yerlarda, qaysiki sizot suvlari bevosita yer betiga yaqin va yer betiga chiqib turgan yerlarda keng tarqalgan. Sho'rxoklarning eng kattasi To'dako'lning g'arbiy etagida joylashgan Xojkab sho'rxogidir. Maydoni 220-250 ga atrofida. Bu yerda sho'rxok ko'p yil davomida tuz-balchiq holda uchraydi. Sizot suvlari o'ta sho'rlangan. Atrofdan filtratsiya tufayli kirib kelayotgan sho'r sizot suvlari shu yerda qo'nim topadi, ya'ni ularning bug'lanishi tufayli tuzlar kristallashadi va sho'rxok ustini qoplab yotadi. Sho'rxokning sharqiy chekkasi orqali Quyimozor kanali o'tkazilgan. Sho'rxok atroflari ko'lmakli-botqoqli bo'lib, suv bo'yida yashovchi qushlarning makoni hisoblanadi. Kelgusida mazkur sho'rxokdan balneologik maqsadlarda foydalanish ayni muddao bo'lardi. Kelgusida ularni fitomelioratsiya qilish, tuzli balchiqlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

Qayd qilish joizki, Quyimozor-To'dako'l suv omborlaridan tashqari Amu-Buxoro mashina kanalining I - II navbati qismlari va ulardan suv oladigan O'rtacho'l, Shohrud, Quyimozor kabi kanallar va bir necha ko'lmakzorlar mavjud. Bunday suvli landshaftlarni tartibga keltirish, kanallarning tashqi ko'rinishi, suv bo'yida o'sadigan to'qayzorlarni oqilona tashkil qilish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Kelgusida Amu-Buxoro mashina kanali suvli landshaftlaridan samarali foydalanish va uning tasir zonasidagi landshaftlarni oqilona tashkil qilish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Kanal suvini tejash choralari kuchaytirish, uning suvidan tartibsiz va samarasiz foydalanishga yo'l qo'ymaslik lozim. Birgina misol To'dako'l - ("Uchlik"- Jayron ekomarkazi oralig'idagi 25 kmli masofada) kanalning chap sohilidagi 11 joyda nasoslar o'rnatilib 1800 gektar yer o'zlashtirilgan. Lekin bu yerlardan olinadigan hosil, keladigan daromad o'zini oqlamaydi. Yangi o'zlashtirilgan yerlarning aksariyat qismi yantoqzor, yulg'unzor, to'qayzor bo'lib ketgan. Kanal suvini Buxoro vohasidagi qadimdan ekilib kelinayotgan va hozirda ekilmay qolgan yerlarga yo'naltirish kerak.

Kanal bo'yidagi qayirlarda hosil bo'lgan yulg'un, qamish, tol, turang'il teragi kabi o'simliklardan iborat to'qayzorlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish lozim. Ko'p hollarda har yili kuz-qish fasllarida yoqib yuboriladi. Uni o'rniga mevali va yog'ochbop daraxtlarni ekish maqsadga muvofiq (non jiya, o'rik, gujum va boshqalar).

Kanal atrofidagi pastqam yer-ko'lmaklarni tuproq-qum bilan to'ldirish lozim. Aks holda har yil katta miqdordagi suv behuda bug'lanib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Атлас. Земельные ресурсы Республики Узбекистан. Ташкент.- 2001.66 с.
2. Jumaev T.J. Ekologiya iqtisodiyoti. Toshkent, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. 288 b.
3. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. Toshkent, «Fan», 1991.

4. Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. (На материалах нижней части р. Зарафшан). Ташкент, «Фан», 1992. 101 с.
5. Nazarov I.Q., Allayorov I.Sh. Buxoro geografiyasi. 1-qism. Buxoro, 1994. - 67 b.
6. Hikmatov F.H., Sirliboeva Z.S., Aytbaev D.P. Ko'llar va suv omborlar geografiyasi, gidrologik xususiyatlari. –Toshkent: Universitet. 2000. 122 b.